

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BABADJANOVA MALIKA RUZIMOVNA

**OLIY TA'LIMDA INSON KAPITALI TARKIBINI
TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Babadjanova Malika Ruzimovna

Oliy ta'limda inson kapitali tarkibini takomillashtirishning nazariy
jihatlar.....3

Бабаджанова Малика Рuzимовна

Теоретические аспекты улучшения состава человеческого капитала в сфере
высшего образования25

Babajanova Malika Ruzimovna

Theoretical aspects of improving the composition of human capital in higher
education.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BABADJANOVA MALIKA RUZIMOVNA

**OLIY TA'LIMDA INSON KAPITALI TARKIBINI
TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt 3398 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mambetjanov Qaxramon Qurbondurdievich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shokirova Farag‘at Baltaevna
iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d.,
professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda postindustrializatsiya, axborotlashtirish va bilimga asoslangan iqtisodiy rivojlanish komponentlarining o'sishi sharoitida oliy ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy quyi tizimlari o'rtasida o'ziga xos moderator bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur tizimning yetakchi global trendlar va tendensiyalarni translyatsiya qilish yoki o'zida jamlashdagi roli ortib bormoqda. Oliy ta'lim tizimi inson kapitalini takomillashtirish va jamiyatni rivojlantirish, madaniy merosni avloddan avlodga uzatish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimi shaxs tomonidan bilimlarni egallashiga xizmat qilib, unga ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish hamda iqtisodiy faol hayotga kirishida dastak bo'ladi. "BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarida ta'kidlanganidek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sur'ati jahonda saqlanib, 2030-yilga borib oliy o'quv yurtlari talabalarining prognoz soni 414 million kishiga yetadi, bu 2000-yilga nisbatan 4,2 barobarga ko'pdir"¹. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bilan birga ta'lim xizmatlari sifatini oshirish orqali inson kapitalini takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Jahonda inson kapitalini takomillashtirish, uning bilimi, qobiliyatlari, ko'nikma, kompetensiyalarini va motivatsiyalarini oshirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Inson kapitalini takomillashtirishda oliy ta'lim tizimining rolini oshirish, iqtisodiyotning real sharoitida davlatning ta'lim siyosatini ishlab chiqish, oliy ta'limni rivojlantirish, raqamli innovatsion ta'lim texnologiyalari va shakllarini joriy etish, oliy ta'limda yoshlarning qamrov darajasini oshirish, ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, inson kapitalidan keladigan daromadning doimiy o'sishini ta'minlash muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholi farovonligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim tizimiga inson kapitalini takomillashtirish hamda mamlakat raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim dastak sifatida qaralmoqda. Bu borada "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir"², deb belgilab berildi. Shu munosabat bilan oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali inson kapitalini takomillashtirish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish muammosini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimida davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, nufuzli xorijiy oliy ta'lim

¹ Manba: www.unesco.org.

² Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Xalq so'zi, 2022-yil 21-dekabr.

muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish asosida yoshlarni oliy ta'limga qamrov darajasining 50 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash, sohada raqobat muhitini yaratish, fan, ta'lim va ishlab chirapishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirish orqali inson kapitalini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 7-martdagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6097-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'limda inson kapitali tarkibini takomillashtirishning nazariy jihatlari J.Ben-Poret, L.Valras, S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi, A.Marshall, F.Makhloop, L.Turo, T.Sakayya, U.Dayzard, M.Kastels va boshqa qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Inson kapitalining zamonaviy to'la va yaxlit nazariyasini rivojlantirishga G.Beker va T.Shuls tomonidan asosiy hissa qo'shilgan³.

MDH mamlakatlari olimlaridan Korogodin I.T., Shevchenko D.A., Sergeeva A.O., Cherkashin M.D., Redko L.L., Soloduxa P.V., Gruzkov I.V., Gruzkov V.N.,

3 Ben-Porath Y. The Production of Human capital and the Live Cycle of Earning / Y. Ben-Porath. - «Journal of Political Economy», August, 1967. - P. 363., С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи Экономика. Пер. с англ. со 2-го изд. / С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи. – М. : Дело, 1998. – С. 303., Marshall A. Principles of Economics / A. Marshall. – London : Macmillan and Co., 1961. – 872 p., McCulloh J.R. The Principles of Political Economy / J.R. McCulloh. – Alex Murray and Son, 1870. – 287 p., Thurow L. Investment in Human Capital / L. Thurow. - Belmont: 1970. – 198 p. Сакайя Т. Стоимость, создаваемая знанием, или история будущего// Новая постиндустриальная волна на Западе. Антология. / под ред. В.Л. Иноземцева. - М.: Academia, 1999. - С. 337-371., Дайзارد У. Наступление информационного века // Новая технократическая волна на Западе. Сборник статей / отв. ред. П. С. Гуревич. – М.: Прогресс, 1986. – С. 345. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура / пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с., Беккер С. Г. Человеческое поведение. Экономический подход. Избранные труды по экономической теории / пер. с англ. яз. Сост., науч. ред., послесл. Р.И. Капелюшников; предисл. М.И. Левин. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с., Schultz T.W. Investments in Human Capital: The Role of Education and of Research / T.W. Schutz. – New York: Macmillan & Co., Free Press, 1971. – 272 p.

Tkachenko A.V., Titov V.A., Kapelyushnikov R.I., Remorenko I.I., Rojkov A.I., Popova T.S., Parfenova S.L va boshqalar ushbu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan⁴.

Oliy ta’limda inson kapitali tarkibini takomillashtirishning nazariy jihatlari bilan o‘zbekistonlik olimlardan Q.X.Abdurahmonov, R.A.Ubaydullayeva, G.Q.Abduraxmonova, S.A.Bozorova, X.P.Abulqosimov, A.O‘lmasov, A.Vahobov, T.T.Jo‘rayev, Sh.G.Akromova, N.I.Xasanxonova, A.X.Eshboyev, A.S.Xojayev va boshqalarning mazkur sohaga daxldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin⁵.

Biroq, oliy ta’limda inson kapitalini takomillashtirish muammolari keng o‘rganilganiga qaramay, uning ko‘plab masalalari munozarali bo‘lib qolmoqda va yetarli darajada ochib berilmagan. Iqtisodiy kategoriya sifatida inson kapitalini takomillashtirish jarayonidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar, oliy ta’limda inson kapitalini takomillashtirishning nazariy jihatlari va uni tartibga solish mexanizmi shular jumlasidandir. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi va ushbu dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

4 Корогодин И.Т. Социально-трудовая система: вопросы методологии и теории / И.Т. Корогодин: монография. – М.: ПАЛЕОТИП, 2005. – С. 122., Шевченко Д.А.Эффективность управления брендом образовательного учреждения: теория и практика //Практический маркетинг. №. 6 (220)., Сергеева А. О., Черкашин М. Д. Счастье как социальный феномен // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. 2018. Т. 8, № 4 (29). С. 287., Солодуха П.В. Институциональные основы воспроизводства человеческого капитала. Монография / П.В. Солодуха. – М.: Информационно-внедренческий центр «Маркетинг», 2004. – С. 36., Грузков И.В. Воспроизводство человеческого капитала : философско-экономический анализ : монография / [под ред. проф. Л.Л. Редько] / И.В. Грузков, В.Н. Грузков. – Ставрополь : Изд-во СГПИ, 2010. – С. 90., Титов В. Направления взаимодействия вузов и бизнес-сообщества / В. Титов, Д. Ендовицкий // Высш. образование в России. - 2007. - № 7. - С. 12-17., Ткаченко А.В. Здоровье как один из важнейших факторов воспроизводства человеческого капитала / А.В. Ткаченко // Власть и управление Востока России. – 2011. - № 1. – С.142., Капелюшников Р. И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р. И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 116. Капелюшников Р. И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р. И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 116., Реморенко, И.И. Перспективы применения сетевой формы реализации образовательных программ в сфере педагогического образования / И.И. Реморенко, А.И. Рожков // Вестник Герценовского университета. - 2014. - № 3-4. - С. 19-24.- <https://lib.herzen.>, Попова Т.С. Социально-экономический механизм государственного управления национальной конкурентоспособностью: Монография/ Т.С. Попова. - Воронеж: издательств «ИСТОКИ», 2012. - 107с., Парфенова С.Л. Сетевая модель организации научной деятельности // Наука. Инновации. Образование. –2014. –№ 16. –С. 78 –89.

⁵ Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 б., Ubaydullaeva P.A. Роль и значение социальных императивов в инновационном развитии страны. XXVI международные Плехановские чтения. Материалы международной научно-практической конференции. М.:2013. С.107-108., Каримова Д.М. Социальный капитал как элемент обеспечения конкурентоспособности национальной экономики. /Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики. Т.: «Baktria Press» 2012.С.199-207., Abduraxmonova G.Q., Bozorova S.A. Inson kapitali iqtisodiyoti. -T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2022. B. 29., O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU.-T.: “Iqtisod-Moliya” 2014. -B.20. Abulqosimov X.P va boshqalar. O‘zbekistonda aholi turmush darajasining barqaror o‘sishi. “Akademiya” Toshkent 2011 y. -B.24. Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: TMI. 2017 y. -656., Xasanxonova N.I. O‘zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishining shart-sharoitlari. Jurnal “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. 2020-yil №6 son. -112 B. Eshboyev A.X. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ta’lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri. I.f.n.ilm. dar. olish uchun yozilgan dis.avtoreferati. – Toshkent, 2008. -B.8. Xojayev A.S. Oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyati – budjetdan tashqari mablag‘larning muhim asosi sifatida. Jurnal. “Iqtisod va ta’lim” 2021-yil. №6 son. – B. 200. Zufarova N.G. Oliy ta’limning brend kapitali – tashkilotning nomoddiy aktivsi sifatida. Jurnal “Logistika va iqtisod” 2022-yil №1 son. -B.158.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'limda inson kapitali tarkibini rivojlantirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

inson kapitalini iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini turli uslubiy yondashuvlar orqali ochib berish va tavsiflash;

jahon ta'lim tizimini global transformatsiyalashuvi sharoitida oliy ta'limning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

inson kapitalini takomillashtirishni "jarayon va natija" tamoyili asosida tahlil qilish va ularning xalqaro indeks ko'rsatkichlarini aniqlash;

oliy ta'lim tizimi va mehnat bozorining o'zaro ta'sirini kompetensiyaga asoslangan yondashuv kontekstida ko'rib chiqish;

ko'p omilli ekonometrik model asosida oliy ta'limning inson kapitalini takomillashtirishga ta'sirini baholash va uning prognoz qiymatlarini aniqlash;

oliy ta'limda inson kapitalini takomillashtirishda forsait ta'lim texnologiyalari asosida transformatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda oliy ta'limning inson kapitali tarkibini takomillashtirishga ta'siri jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib oliy ta'lim tizimida inson kapitali tarkibini takomillashtirish jarayoni bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqot jarayonida dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, guruhlash, ekonometrik modullashtirish hamda prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, "inson kapitali" tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi konseptual asoslari ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, mulkiy, shaxsiy, taqsimlash, institutsional, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jihatidan mazmuni va ijtimoiy shakli o'rtasidagi muvofiqligi hamda jamg'arilishi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra jahondagi postindustrialashtirish, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyoti triadasi bilan bog'liq transformatsion jarayonlarning jahon oliy ta'lim tizimini rivojlanishining global tendensiyalariga hamda uni tashkil qilishning dominant konvergent modellariga ta'siri aniqlangan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, zamonaviy institutsional nazariyalarga muvofiq oliy ta'limning ijtimoiy gumanitarligi tavsifi, barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashi, boshqaruvni demokratlashtirish, raqamli innovatsion ta'lim texnologiyalari, tadbirkorlik, ilmiy va ta'lim konsorsiumlari kabi forsait ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida inson kapitali nazariyasi takomillashtirilgan;

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasasi, o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'lim muassasasi hamda oliy ta'lim muassasasiga qilingan byudjet va nobyudjet xarajatlarning inson kapitali tarkibini takomillashtirishga ta'siri hamda oliy ta'lim

xizmatlari hajmi o‘shirishining 2026-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida inson kapitali kategoriyasining mazmunini tashkil etuvchi elementlarning tuzilishi, shu jumladan, uning moddiy-buyumlashgan tomonini tashkil etuvchi obyektlar va subyektlar aniqlangan;

mehnat bozori talablarini amalga oshirish sharoitida oliy ta’limni konvergent transformatsiyasi vektorini belgilovchi dominant tendensiyalar hamda mehnat bozorining kompetentlik tomon siljishi aniqlangan;

oliy ta’limni akademik faoliyatni modellashtirishning global tendensiyalarini hisobga olgan holda oliy ta’limni rivojlantirish modellarini bashorat qilish metodologiyasiga asoslangan kognitiv tahlil algoritmi ishlab chiqilgan;

oliy ta’limda inson kapitalini takomillashtirish iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda davlat siyosati va mexanizmining tuzilishi, uning aloqalar to‘plami, subyektlari, obyektlari, tartibga solish instrumentlaridan iborat har bir bo‘g‘inning funksional mexanizmi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo‘llanilgan yondashuv va instrumentlarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma’lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, zamonaviy integral va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil etilganligi hamda tegishli xulosa, takliflasning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy qoida va xulosalardan oliy ta’limda inson kapitalini takomillashtirishda nazariy jihatlarini tadqiq etishda konseptual yondashuvni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Inson resurslari” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonlarida foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’limda inson kapitali tarkibini rivojlantirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “inson kapitali” tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi konseptual asoslarini ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, mulkiy, shaxsiy, taqsimlash, institutsional, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jihatidan mazmuni va ijtimoiy shakli o‘rtasidagi muvofiqligi hamda jamg‘arilishi nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma’lumotlardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Ekonomika” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning

amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda turli jihatdan mazmuni va ijtimoiy shakli o'rtasidagi muvofiqligi hamda jamg'arilishi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "inson kapitali" tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi konseptual asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra jahondagi postindustralashtirish, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyoti triadasi bilan bog'liq transformatsion jarayonlarning jahon oliy ta'lim tizimini rivojlanishining global tendensiyalariga hamda uni tashkil qilishning dominant konvergent modellariga ta'sirini aniqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 12-martdagi 03/43-733-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida jahonda postindustralashtirish, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyoti triadasi bilan bog'liq transformatsion jarayonlarning jahon oliy ta'lim tizimini rivojlanishining global tendensiyalariga hamda uni tashkil qilishning dominant konvergent modellariga ta'siri sharoitida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun xos bo'lgan global xavf va tendensiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish imkonini yaratgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra zamonaviy institutsional nazariyalarga muvofiq oliy ta'limning ijtimoiy gumanitarligi tavsifi, barcha uchun teng imkoniyatlar ta'minlanishi, boshqaruvni demokratlashtirish, raqamli innovatsion ta'lim texnologiyalari, tadbirkorlik, ilmiy va ta'lim konsorsiumlari kabi forsait ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida inson kapitali nazariyasini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Ekonomika" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda forsait ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida takomillashtirilgan inson kapitali nazariyasi bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasasi, o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'lim muassasasi hamda oliy ta'lim muassasasiga qilingan byudjet va nobyudjet xarajatlarning inson kapitali tarkibini takomillashtirishga ta'siri hamda oliy ta'lim xizmatlari hajmi o'sishining 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 12-martdagi 03/43-733-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta'lim tizimiga qilingan yalpi xarajatlarning 1%ga o'sishi inson kapitalini takomillashtirishga 1,35% ta'sir etishi hamda oliy ta'limni rivojlanishining prognoz qiymatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini 2022–2030-yillarda OTMlarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konfepensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi hamda muhokama natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Inson kapitalini tadqiq etishning nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida inson kapitali nazariyasi rivojlanishining konseptual asoslari hamda iqtisodiy kategoriya sifatida inson kapitali mohiyati va uni takomillashtirishda ta'limni o'rni tadqiq etilgan, jahon ta'lim tizimini global transformatsiyasi sharoitida O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlanish tendensiyalari ochib berilgan.

Inson kapitali nazariyasining kelib chiqishi klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillarining iqtisodiy ta'limoti bilan boshlangan. Keyinchalik klassik siyosiy iqtisod maktabi asoschisi A.Smit tomonidan rivojlantirildi. A.Smit ishlab chiqarish jarayonida ishchining qobiliyati va ko'nikmalari hal qiluvchi o'ringa tegishli, deb hisoblagan.

XIX asrda inson kapitalining mazmunini ifoda etuvchi ikkita yo'nalish shakllandi. Birinchi yo'nalish vakili, klassik siyosiy iqtisodiyot maktabi vakili Dj.S.Mill. U inson kapitalining mavjudligi va mazmunini inson qobiliyatlarini egallash, deb tushuntirdi, biroq insonning o'zini bu tushunchaga kiritmadi. Ikkinchi yo'nalishga ko'ra, (Dj.Mak-Kullox, L.Valras, I.Fisher, N.U.Senior) insonning qobiliyatlari bilan bir vaqtda insonning o'ziga inson kapitali sifatida qaralgan.

Zamonaviy inson kapitali nazariyasining asoschisi T.Shuls tomonidan birinchi marta ta'limni ayniqsa iqtisodiy rivojlanishda quvib yetish turiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan asosiy omil sifatida aniqladi. Inson kapitali nazariyasiga G.Beker ham katta hissa qo'shdi. G.Bekker inson kapitalining shakllanishini ko'rib chiqdi va u inson kapitali insonga qilingan investitsiyalar orqali takomillashtirishini ta'kidlab o'tdi.

Respublikamiz iqtisodiy fanida “Inson kapitali” tushunchasini tadqiq etgan olimlarimiz tadqiqotlarini umumlashtirish asosida bir nechta yondashuvlarni aniqlash mumkin. Ko'pgina respublikamiz olimlari inson kapitalini rentabellik mezoniga asoslanib aniqlaydilar, ya'ni inson kapitali deganda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan va kelajakda daromad keltiradigan insonning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari majmui, deb tushunilgan.

Inson kapitalini tadqiq qilishning konseptual asoslari⁶

Iqtisodiy maktablar va yo'nalishlar	Maktab vakillari	Inson kapitali mazmunini talqin qiluvchi asosiy nazariy yondashuvlar
Klassik maktab	U.Petti,A.Smit, Dj.S.Mill, Dj.Mak-Kullox, N.U.Senior, J.B.Sey	Inson kapitalini milliy boylikning bir qismini tashkil etuvchi jamg'arilgan bilim, ko'nikma qobiliyatlar sifatida tushunilgan. Inson kapitali xarajatlar natijasida olingan va mehnat unumdorligini o'sishiga olib keladigan qobiliyatlar va kasbiy mahoratni ifodalaydi. Inson kapitaliga orttirilgan va egallangan qobiliyatlar sifatida qaralib, faqatgina vosita sifatida mehnat jarayonida amalga oshadi
Neoklassik maktab	L.Valras, I.Fisher, A.Marshal, T.Shuls, G.Bekker, L.Turrou, F.Maxlup, Y. Ben-Porat	Inson kapitali kelajakdagi daromad manbai yoki kelajakdagi qoniqish yoki ikkalasi hamdir. U insoniydir, chunki uning ajralmas qismini tashkil qiladi. Odamlarning inson kapitali – bu ularning mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyatidir. Inson kapitali inson tashuvchisidan ajralmas bo'lib, u asosan tegishli tarbiya va ta'lim natijasida olingan siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka hurmat kabi insoniy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Inson kapitalini vazifasi umumiy qabul qilingan o'lchov birliklarida mehnat xizmatlarini ishlab chiqarish bo'lgan va bu sifatda moddiy buyumlashgan kapital vakili sifatida har qanday mashinaga o'xshash fond, deb ta'riflaydi
Neokeynschi lik maktabi	S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi	Inson kapitali – bu odamda mujassamlangan daromad olish qobiliyatlari o'lchovidir. Inson kapitaliga tug'ma qobiliyat va iste'dod hamda ta'lim va olingan, orttirilgan malaka ham kiradi
Rossiya iqtisodiy maktabi	A.I. Dobrinin, L.I. Abalkin, I.T. Korogodin, Ye.A. Svyatodux, V.N. Belkin, N.A. Belkina, V.V. Radaev, V.F. Maksimova	Inson kapitali deganda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan va kelajakda daromad keltiradigan insonning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari majmui, deb tushunilgan. Inson kapitalini iqtisodiyot va umuman jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan asosiy ishlab chiqarish va ijtimoiy omil, deb bilishadi va uni shaxsga yo'naltirilgan investitsiyalar orqali uning ma'lum bir qobiliyatlar va sifatlarini jamg'arilishi va rivojlanishi orqali aniqlaydilar. Postindustrial jamiyatda inson kapitalining paydo bo'lishi uchinchi ilmiy-texnik inqilob natijasidir, unda bilim, ko'nikma va malakalarni, xodimlarning malakasi, professionalligi, umuman ta'lim darajasini birinchi o'ringa olib chiqadi
O'zbekiston iqtisodchilari maktabi	R.A.Ubaydullaev a.Q.X. Abdurahmanov, G.Q.Abduraxman ova A. O'lmasov, A.Vahobov, S.A. Bozorova	Tor ma'noda inson kapitali – insonning intellekti, salomatligi, bilimi, mahsuldor mehnati hamda uning turmush sifatini ifodalasa, keng ma'noda esa, inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir

Akademik Q.X.Abdurahmanovning fikricha, “Inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir”⁷. Inson kapitali iqtisodiy kategoriyasi sifatidagi tushunchasi jahon axborot hamjamiyati va “bilimlar iqtisodiyoti” rivojlanishi bilan birgalikda muntazam ravishda kengayib

⁶ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

⁷ Abdurahmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. –T.: Mehnat, 2009. - B.182.

bormoqda. A.O‘lmasov va A.Vahobovlarning xulosalariga ko‘ra, “Inson kapitali – bu kishilarning hayotiy ne‘matlar hisoblangan tovar va xizmatlarni yaratishga qodir bo‘lgan aql-idroki va kuch-quvvatidir, uni yaratish xarajat talab qilgani uchun u kapitalga tenglashtiriladi”, deb ta’kidlab o‘tadilar⁸. Inson kapitali to‘g‘risidagi barcha nuqtayi nazarlarni umumlashtirib, ularni quyidagi iqtisodiy maktablar va yo‘nalishlar bo‘yicha birlashtirish mumkin (1-jadval).

Tadqiqot ishida inson kapitalini iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, mulkiy, shaxsiy, taqsimlash, institutsional, ijtimoiy, takror ishlab chiqarish yondashuvlaridan foydalangan holda tadqiq etilib uning mohiyati ochib berilgan.

Muallif fikricha, inson kapitali – bu iqtisodiy o‘shishga hamda insonlar farovonligini oshirishga hissa qo‘shadigan, individning hayot faoliyati davomida olingan va jamg‘arilgan yalpi bilim, kasbiy malaka qobiliyatlari yig‘indisidir.

Dissertatsiyada ishchi kuchi va inson kapitali kategoriyalari tadqiq etilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, ishchi kuchi, inson kapitali bilan aniqlanmasligi kerak hamda unga qarshi ham qo‘yilmasligi kerak. “Ishchi kuch” va “inson kapitali” kategoriyalari o‘zaro bog‘liqdir. Inson kapitali, tegishli ishchi kuchi kategoriyasidan farqli o‘laroq, investitsiyalar natijasida jamg‘arilishi mumkin. Inson kapitali ko‘proq imkoniyatlarni aks ettiradi, u investitsiyalar natijasida jamg‘arilgan qo‘shimcha qobiliyat, bilim va ko‘nikmalar bilan jonli insonda gavdalanadi va u sotilmaydi yoki sotib olinmaydi. Inson kapitali bo‘lganligi sababli yollanma xodim o‘z mehnati bilan xizmatni yaratadi, uning mehnat faoliyati natijasi pulga ayirboshlanishi mumkin.

Tadqiqot ishida iqtisodiy kategoriya sifatida inson kapitalining konseptual asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, mulkiy, shaxsiy, taqsimlash, institutsional, ijtimoiy, takror ishlab chiqarish yondashuvlaridan foydalanib uning mazmuni va ijtimoiy shakli o‘rtasidagi muvofiqligi, jamg‘arilishi hisobidan takomillashuvi ochib berildi.

Jahon iqtisodiyotini globallasuvi, dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda transformatsion jarayonlarning turli yo‘nalishlarini va uning intensivligini belgilab bermoqda. Ta’lim sohasida globallasuv jarayonlari ikki tendensiya shaklida namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, ta’limning globallasuvi jarayoni natijasida milliy oliy ta’lim tizimlarining o‘zaro hamkorligi va bir-biriga qo‘shilishi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, global ta’limni shakllanish jarayoni yuz bermoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bugungi kunda jahon oliy ta’lim tizimini rivojlanishining dominant global tendensiyalariga quyidagilarni ta’kidlab o‘tish mumkin: 2030-yilga kelib asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga oliy ma’lumotli insonlar sonini ikki baravarga o‘sishi; malaka darajasini baholash mezonlari omillarining muayyan ish funksiyalarini bajarish uchun ko‘nikma va qobiliyatlar tomonga siljishi; mehnat bozorida malakali kadrlar ulushining o‘sishi natijasida malakali ishchilarning nominal daromadlarining o‘shish sur‘atlarining pasayishi; raqamlashtirish va virtual mehnat harakatchanligi imkoniyatining paydo bo‘lishi

⁸ O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU. – T.: Iqtisod va moliya, 2014. -226 b.

natijasida kasblarning transformatsiyasi va modifikatsiyasi; ta'lim xizmatlarini taqdim etishning muqobil usullari (onlayn platformalar, ochiq onlayn kurslar va boshqalar) ulushining ko'payishi hisobiga ta'lim xizmatlari bozorida talab va taklif omillarining o'zgarishi; ta'limni raqamli texnologiyalar asosida o'yinli faollashtirish (simulyatorlar, virtual haqiqat va boshqalar); klassik raqamli kontentni, smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan kontent bilan almashtirish orqali "mobil ta'lim"ga o'tish; o'quv natijalarini baholash va nazorat qilish uchun blockcheyn texnologiyalaridan foydalanish va h.k.

2-jadval

2030-yilgacha oliy ta'limni rivojlantirishning dominant modellarini muhim xususiyatlarini qiyosiy tahlili⁹

Model	Yuqori ta'sirchan	Quyi ta'sirchan
An'anaviy oliy ta'lim modeli	Davlat Mintaqaviylashtirish Tartibga solish mexanizmlari "Qo'lda boshqarish"	Bozor kuchlari Global tendensiyalar Shaxsiylashtirish va xususiylashtirish Texnologiyalashtirish
Mintaqaviy oliy ta'limni o'sish modeli	Davlat Mintaqaviylashtirish Tartibga solish mexanizmlari Texnologiyalashtirish	Bozor kuchlari Global tendensiyalar Shaxsiylashtirish va xususiylashtirish "Qo'lda boshqarish"
Oliy ta'limni mega tashkilotlar (konsorsiumlar) modeli	Bozor kuchlari Global tendensiyalar Yangi texnologiyalar	Tartibga solish mexanizmlari "Qo'lda boshqarish"
Iyerarxik tuzilmaga ega bo'lmagan bir turdagi tarmoqli tizim (R2R) oliy ta'lim modeli	Bozor kuchlarini individuallashtirish Texnologiyalashtirish "Qo'lda boshqarish"	Mintaqaviylashtirish
Robotlashtirishga asoslangan oliy ta'lim modeli	Texnologiyalashtirish Shaxsiylashtirish Bozor kuchlari Global tendensiyalar	Mintaqaviylashtirish

Jahon oliy ta'lim tizimini globallasuvi milliy oliy ta'lim tizimlarining mavjudligini yagona umumiy modelini o'rnatishni anglatmaydi, balki ichki sivilizatsiyalararo ustuvorlik asosida, oliy ta'lim tizimi va ta'lim jarayonlarining milliy o'ziga xosligini saqlagan holda, tarixiy an'analar hisobiga oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirishning samarali milliy-modellarini shakllantirishga qaratilgan.

Tadqiqot doirasida aniqlandiki, milliy oliy ta'lim tizimlari bir vaqtning o'zida o'z faoliyatining turli sohalarda turli modellar orqali amalga oshirishi mumkin. Masalan, ta'lim faoliyatini tashkil etish doirasidagi ta'lim tizimining an'anaviy

⁹ Muallif tomonidan: Education in 2030: five scenarios for the future and talents/ Official website Holon I Qhttps://www.Holoniq.com/ ma'lumotlari asosida tuzilgan.

modelga rioya qilishi, kasbga yo'naltirish va amaliy tayyorgarlikni mintaqaviy model doirasida ko'rish mumkin, qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlari uchun o'quv jarayonini tashkil qilishda iyerarxik tuzilmaga ega bo'lmagan bir turdagi tarmoq modeli va rejalashtirish, ilmiy o'lchamli ko'rsatkichlarni tahlil qilishda robotlashtirish modelini qo'llashi mumkin (2-jadval).

Tadqiqot ishida jahonda postindustralashtirish, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyoti bilan bog'liq transformatsion jarayonlarning jahon oliy ta'lim tizimini rivojlanishining global tendensiyalariga hamda uni tashkil qilishning dominant konvergent modellariga ta'siri sharoitida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun xos bo'lgan global xavf va tendensiyalar aniqlandi. Ularga: xalqaro ilmiy va akademik hamkorlik samaradorligini pasaytiradigan geosiyosiy tahdidlar; ilmiy va akademik hamjamiyatlar va xususan noyob kompetensiyali kadrlarning tanqisligi; oliy ta'lim tizimlari doirasida tadbirkorlik subyektlarini brendlashning yangi yo'nalishlarini asoslash; talabalarning past to'lov va (yoki) yuqori kredit qobiliyati; ilmiy va akademik jamoalarda yetakchilik salohiyatining yetishmasligi; oliy ta'limni olishga teng imkoniyatlarga ega bo'lmaslik muammosi; talabalarning ta'lim natijalarini ishonchli baholash mexanizmlarining yo'qligi; istiqboldagi mehnat faoliyati uchun amaliy va real tayyorgarlikning past darajasi; ish beruvchilarning inson kapitalini mustaqil takomillashtirishga bo'lgan qiziqishini past darajada ekanligi; ta'lim tizimini (davlat va xususiy) rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni qisqartirish; davlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini qisqarishi; oliy ta'lim tizimlarining noijtimoiylashuvini o'sib borishi; xalqaro standartlar bilan haddan tashqari unifikatsiyalash natijasida mintaqaviy milliy o'ziga xoslikni yo'qolishiga olib kelishi.


Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda inson kapitalini takomillashtirishda oliy ta'lim tizimining o'rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida inson kapitalini takomillashtirish “jarayon-natija” tamoyili asosida tahlil etilgan, oliy ta'lim tizimining inson kapitalini takomillashtirishdagi o'rni va uni rivojlanish dinamikasi xususiyatlari o'rganilgan hamda inson kapitalini takomillashtirishda oliy ta'limni rolini baholash va uning prognoz qiymatlari tahlil etilgan.

Bizning fikrimizcha, inson kapitalini takomillashtirishni tadqiq etishda inson kapitalini takomillashtirishni jarayon sifatida va natijada tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun “jarayon-natija” tamoyilini qo'llash kerak. Jahon sahnasiga inson kapitalini takomillashuvi darajasini ifoda etuvchi yangi xalqaro indeks ko'rsatkichlar: global inson taraqqiyoti indeksi, global raqobatbardoshlik va innovatsion indekslar, global iqtisodiy bilim indeksi va h.k. boshqa indekslar kirib keldi.

Jahon banki mamlakatlardagi ta'lim darajasi va sifatini baholash uchun bilimlarni maxsus dasturi doirasida mamlakatlarning bilimlarni yaratish, tarqatish va qabul qilish qobiliyatini baholash asosida bilimlar iqtisodiyoti indeksini ishlab chiqdi. Bilimlar iqtisodiyoti indeksi (BII) asosini o'rtacha to'rtta indeks tashkil etadi: iqtisodiy va institutsional rejim indeksi, ta'lim indeksi, innovatsiyalar indeksi va axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari indeksi yig'indisidir.

Global bilimlar iqtisodiyoti indeksiga ko'ra, jahonda birinchi o'rinda AQSh, ikkinchida Shvetsariya va uchinchi Shvetsiya turibdi. O'zbekiston jahon


reytingida 86 o‘rinda, Rossiya Federatsiyasi 53 o‘rin, Qozog‘iston 78 o‘rin, Qirg‘iziston 87 o‘rin, Tojikiston 106 o‘rinda turibdi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi o‘z reytingini yanada yaxshilashi uchun ITTKIda ortda qolgan ko‘rsatkichlar masalalari ustida ishlashi kerak.



1-rasm. Jahonning rivojlangan va MDH mamlakatlarida global bilimlar iqtisodiyoti indeksi, (2022-yil)¹⁰

O‘zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha sohalariga innovatsiya va texnologiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini takomillashtirishda global innovatsion indeks ko‘rsatkichi muhim o‘rin tutadi. Global innovatsion indeksning 2022-yil uchun reyting natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 132 mamlakat orasida 82-o‘rinni egallab, o‘tgan yilga nisbatan to‘rt pog‘onaga ko‘tarildi. Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekiston institutlar, inson kapitali va ilmiy-tadqiqot, infratuzilma, ichki bozorning rivojlanish darajasi kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi.

Inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini takomillashuvi holatini baholovchi ko‘rsatkichlardan yana biri bu inson taraqqiyoti indeksidir (ITI).



2-rasm. Jahonning rivojlangan va MDH mamlakatlarida inson taraqqiyoti indeksi, (2022-yil)¹¹

¹⁰ <https://issek.hse.ru/news/777572032.html>

¹¹ <https://gtmarket.ru/ratings/global-index>.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida inson taraqqiyoti indeksini 0,726 dan 0,820 gacha oshirish hamda “Inson taraqqiyoti yuqori bo‘lgan mamlakatlar” toifasidan “Inson taraqqiyoti juda yuqori bo‘lgan mamlakatlar” toifasiga o‘tishini ta’minlash rejalashtirilgan.

Oliy ta’limni inson kapitalini takomillashtirishdagi o‘rnini hisobga olib O‘zbekiston Respublikasida tadqiq etilayotgan davrda OTM soni 2,5 bapobap ko‘payib, 199 taga yetdi va unda yoshlarni qampov darajasi 9 foizdan 38 foizga o‘tdi. 2022-yilda tayanch OTMlar tomonidan 625 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va 634 ta magistratura mutaxassisligi uchun o‘quv reja hamda 4,7 mingdan ziyod o‘quv dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Mazkur ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklari uchun ishlab chiqilgan malaka talablari esa takomillashtirilib o‘quv yilida o‘quv jarayoniga tatbiq etilmoqda.

3-jadval

2010–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining rivojlanish ko‘rsatkichlari¹²

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2010 yil	2013 yil	2016 yil	2019 yil	2021 yil	2022 yil
1.	Oliy o‘quv yurtlarining soni	dona	65	66	70	116	154	199
2.	Talabalar soni, (ming kishi)	dona	274,5	259	297,7	441	808	1040,4
3.	Yoshlarni qamrov darajasi	%da	9,4	9,0	9,2	20,0	28,7	39,0
4.	Davlat byudjeti hisobidan o‘qiydigan talabalar soni	Ming kishi	86,7	86,7	83,6	110,9	82,1	119,6
5.	To‘lov-shartnoma asosida o‘qiydigan talabalar soni	Ming kishi	187,8	187,8	175,4	186,8	358,9	920,3
6.	Xorijiy davlatlar talabalari soni	Ming kishi	817	817	986	603	5000	5000
7.	Bitiruvchi talabalar soni, (ming kishi)	Ming kishi	51,4	52,8	70,8	83,9	103,9	101,9
8.	Oliy o‘quv yurtlarida professor-o‘qituvchilarning soni	Ming kishi	19,6	21,8	24,3	30,6	37,4	41,7
9.	Shu jumladan, fan nomzodlari	kishi	4965	5904	6351	7769	9050	10460
10.	Fan doktorlari	kishi	546	654	1415	2201	2312	3420
11.	Ilmiy salohiyat	% da	26,8	29,4	31,7	34,5	37,2	39,3

Bu O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida inson kapitalini takomillashtirishda ta’lim xizmatlar sohasining asosiy drayver tarmoqlari bo‘lgan Oliy ta’lim tizimi xizmatlari ulushi barqaror o‘sib borayotganini ifoda etadi. Respublika oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyat 32,7 %dan 39,3 %ga,

¹² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari.

dissertatsiya himoyalari ko'rsatkichi 2017 yilga nisbatan 5 barobarga, ya'ni 343 tadan 1765 taga, ilmiy kengashlar soni 32 tadan 177 taga o'sdi.

Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir". Biroq bugungi kunda ushbu belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim tizimi oldida qator muammolar turibdi.

Dissertatsiyada Oliy ta'limda inson kapitalini takomillashtirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish taklif etildi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish;

xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;

sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarini tashkil etish;

ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 4.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

Oliy ta'limda inson kapitalini takomillashtirishda ta'limga ajratilgan xarajatlarda oliy ta'limni ulushidagi o'zgarishlarni tadqiq etish uchun ekonometrik modeldan foydalanamiz. 2016–2022-yillarda ta'limga sarflangan mablag'lar miqdori (X) va inson kapitalini takomillashtirish (Y) o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun vaqtli qator regressiya modelidan foydalanamiz. Oddiy vaqtli qator regressiya modeli:

$$Y_t = a_0 + a_1 X_t + \varepsilon_t$$

Bunda:

Y_t - t davrdagi inson kapitali darajasi;

X_t - t davrda ta'limga sarflangan pul miqdori;


a_0 - bu kesma bo'lib, X nolga teng bo'lsa, inson kapitalining bazaviy darajasini ifodalaydi;

a_1 - regressiya koeffitsiyenti, ta'limga qilingan xarajatlarning bir birlik o'zgarishi uchun inson kapitalini takomillashtirishni ko'rsatadi;

ε_t - xatolik, t davrda inson kapitaliga ta'sir qiluvchi boshqa kuzatilmagan omillarni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasiga ajratilgan jami davlat xarajatlarini 2016–2022-yillar bo'yicha ma'lumotlarga asoslanib vaqtli qator regressiya modeli $Y_t = 51662 + 17209,21X_t$ ko'rinishni oldi. Bunda 17209,21 qiymat $p < 0.05$ statistik ahamiyatga ega ekanligi hamda determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,8571$ ga teng

